Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316963

Qoplanish davri investitsiyalar samaradorligini baholashning eng ko‘p tarqalgan ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bizning amaliyotimizda qo‘llaniladigan kapital qo‘yilmalarning qoplanish muddati ko‘rsatkichi ham foydaga emas, balki investitsiyalanadigan mablag‘larga, keltirilgan pul oqimlariga va haqiqiy qiymatga nisbatan pul oqimi summasiga asoslanadi. Qisqa muddatli qo‘yilmalarda ushbu davr 1 oy, uzoq muddatli qo‘yilmalarda esa 1 yil qilib belgilanadi. Qoplash davri ko‘rsatkichi nafaqat investitsiyalar samaradorligini baholash uchun, balki likvidlik bilan (loyihaning amalga oshirilish davri uni to‘liq qoplanishigacha qanchalik mos bo‘lsa, investitsiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi) bog‘liq investitsiyalash xatarlari darajalarini baholash uchun kam ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.09.2019 йилдаги “Енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4453-сонли Қарори

2. Бабурин Е.А. Теоретические аспекты анализа ресурсного потенциала предприятия // Проблемы современной экономики. 2011. №5. стр. 152-156.;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453 sonli Qarori.

4. Grigoryev A. Marketing: yoki zarur qadamlar. // Korxonani boshqarish. T.: 2009.№3. -21-22-betlar

5. “Shog`iyosov T. Komrleks iqtisodiy tahlil. Darslik. T.: Fan va texnologiya, 2020. – 280b.

- Ziyonet.uz,
- cyberleninka.ru,
- yandex.ru,
- uznatib.uz,
- arxiv.uz,
- DSQ ma’lumotlari 2020-2021

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGIMI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING ZARURLIGI.

Homidova Shoxista
Andijon mashinasozlik insituti
iqtisodiyot yo’nalishi talabasi

Respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o‘sishini ta’minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi oila budjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo‘lmagan aholi sonini keskin

Published: 17.05.2024

Cite this article: Homidova Shoxista (2024). Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligimi oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning zarurligi. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316963

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilar ish stajini hisoblash, ularga pensiya va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar tayinlash huquqi ta’minlanadi. Sanoat korxonalarining kasanachilarga zarur xomashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy pudratni rivojlantirish fuqarolarga vaqtdan unumli foydalanish, shu bilan birga, past rentabelli va ko‘p mehnat sarfi talab qilinadigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida ishlab chiqarishni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu, o‘z navbatida, yirik korxonalar ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ayni paytda globallashuv shiddatli kechayotgan davrda bozor munosabatlarining yo’lga qo’yilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi hamda iqtisodiy tizimdagi axborot rolining o’sishi, yangi texnologiyalar, kapital bozorlari o’rtasidagi aloqalarning kuchayishi iqtisodiyotning innovasion rivojlanish yo’liga o’tishini taqozo etmoqda.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari tajribasini o’rganish, shuningdek, respublikamizning boy tabiiy va ijtimoiy resurslari, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatini hisobga olib, innovasion rivojlanish yo’lini tanlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mamlakatimiz rivojlanishini maksimal darajada tashkil etish uchun, eng avvalo, innovasion hamda ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Bu borada mamlakatimizning kompleksli innovasion siyosatini shakllantirish bo’yicha qonunchilik asoslarini yaratish zarur. Innovasion faoliyatni samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun esa, mazkur faoliyatning strategik va taktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Ma’lumki, mazkur tizimni ishlab chiqish faqatgina ilmiy asoslarda amalga oshiriladi. Shu sababli mutaxassislar, tegishli soha xodimlari innovasion faoliyatni tashkil etish va boshqarish amaliyotini, strategik qoidalarini va innovasion siyosatni shakllantirish hamda amalga oshirish xususiyatlarini bilishi zarur. Innovatsiya, bu – yanada mukammalroq holatga o’tish uchun yaratiluvchi yangiliklardan iborat bo’lib, o’ylab topish, ishlab chiqarish va ixtiro qilish lozim bo’lgan yangi vosita, yangi usul, yangi mahsulot, yangi texnologiyalar, demakdir.

Innovatsiya – yangi bilimlarning yig’indisi sifatida amalda qo’llanishi va mos keluvchi sohalarda samara berishi lozim. Bugungi kunda innovatsiya ishlab chiqarishda, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy munosabatlarda, ilm-fan, madaniyat, ta’lim sohalarida keng qo’llanmoqda. Bu esa, har bir sohaning rivoji uchun yangicha yondashuv bilan qarash, deganidir.

O’zbekiston iqtisodiyotida milliy sanoatning roli va ahamiyati salmoqli bo’lib, davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin bu sohada tub xo’jalik-iqtisodiy, tashkiliy-institusional va tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, davlat – aksiyadorlik, korporativ, jamoa va xususiy mulk shakllariga aylantirish, sanoat armoqlarida tarkibiy o’zgarishlar amalga oshirilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, chet el kapitali ishtirokidagi qo’shma korxonalar tashkil etildi. Milliy sanoat rivojlanishi, yangi davrning makroiqtisodiy vaziyatlarini, bozor munosabatlarini shakllantirish va tarkibiy o’zgarishlar tavsifini sanoatlashtirish strategiyasidan kelib chiqib bir necha bosqichga ajratish mumkin. Bozor munosabatlariga o’tishning ustuvor yo’nalishlaridan biri, bu – iqtisodiyot tarmoqlarida innovasion islohotlar, tub yangilanishlarning

modernizasiya qilinishi hisoblanib, u makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, korxonalarni yangi texnologiyalar bilan jihozlash, iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini oshirishga asoslanadi. Ushbu jarayon, shubhasiz, mamlakatning innovatsion, iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan bir paytda, undan unumli foydalanishni nazarda tutadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovatsion o’zgarishlarni amalga oshirish sur’atlarini jadallashtirishni talab etmoqda. Ta’kidlash joizki, iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, samarali innovasion strategiyaga erishish uchun iqtisodiy va tabiiy omillardan oqilona foydalanish zarur.

Mamlakat sanoat-innovatsion siyosatida potensial raqobatbardoshlikni yuzaga keltirish uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning xomashyo yo’nalishiga ixtisoslashgan tarmoqlarida tarkibiy o’zgarishlar hisobiga eksportga yo’naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Investisiyalarning jalb etilishini muvofiqlashtirish, ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish va dunyo bozorlarida mustahkam o’rin egallash bo’yicha davlat siyosatini yuritish asosiy yondashuvlarimiz mohiyatini namoyon etishi lozim. Sanoat tarmoqlarida innovasion strategiyalarni muntazam ravishda qo’llashni yo’lga qo’yish va tatbiq etishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarilayotgan raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish davomiyligiga erishish sanoat ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyotini ta’minlashning eng muhim yo’nalishlaridan biri, bu – ilg’or, eng zamonaviy texnologiyalarni muntazam ravishda o’zlashtirib borishdan iborat.

Ilg’or texnologiyalar, bu – sinovdan o’tgan texnologik jarayonlarni birlashtirish, turli-tuman fizik – kimyoviy usullarni qo’llash, vakuumlash, nanotexnologiyalardan samarali foydalanish kabi bir qancha usullar majmuini o’zlashtirishni tashkil etishga qaratilgan jarayondir. Yana bir yo’nalish – ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizasiyalashtirish, elektrlashtirish va kompyuterlashtirishdan iborat. Rivojlangan mamlakatlarning barcha tarmoqlarida qayd etilayotgan jihatlarning to’liq amalga oshirilishi uchun qat’iy rioya qilinadi. Bu borada talab etilayotgan bironta omilga ikkilamchi vazifa, deya qaralmaydi. Aksincha, texnik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo’lgan barcha talablarning o’z o’rnida bo’lishiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Shuningdek, avtomatlashtirishning yuksak cho’qqisi hisoblanmish va samaradorlikni ta’minlaydigan robot texnikalarini qo’llashga e’tibor berish ham ishlab chiqarishning eng oliy maqsadlaridan biriga aylanishi lozim. Texnika ilm-fan yutuqlari asosida yaratilayotgan inson kuch qudratini, uning ish qobiliyatini, ijodiy salohiyatini cheksiz oshiruvchi qurol hisoblanadi. Texnologiya esa, ilm-fan va zamonaviy texnik vositalar asosida ma’lum moddiy boyliklarni yaratuvchi yoki shu moddiy boyliklarni amalga oshiruvchi omildir. Yangi texnologiya va innovatsion strategiya, texnik jarayonlarning bir-biriga bog’liqligi, bir-birini to’ldirib turishi, ularning muntazam ravishda takomillashtirilishi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Texnologik innovasiyalar yuridik shaxsning birinchi marotaba ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, jarayonlar, xizmatlar va usullar shaklida (ularni boshqa yuridik shaxslar qo’llayotgan bo’lsa ham) bo’lishi mumkin. Texnologik innovatsiyaning ikkita turi mavjud bo’lib, ular mahsulotlar innovatsiyalari va

jarayonlar innovatsiyalaridan iborat. Sanoat ishlab chiqarishda mahsulot innovatsiyalari texnologik jihatdan yangi va har taraflama takomillashtirilgan mahsulotni tayyorlash va joriy etishni o’z ichiga oladi. Texnologik yangi mahsulot, bu – texnologik xususiyatlari (funksional belgilari, konstruktiv yo’l bilan bajarilishi, qo’shimcha operatsiyalari, qo’llaniladigan tarkibiy
qismlari hamda materiallar tarkibi) yoki qo’llanilish maqsadi prinsipial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o’xshash mahsulotlardan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovasiyalar prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo’lishi mumkin. Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot, bu – yuqori samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish, bir yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarni qisman o’zgartirish (kompleks mahsulotlar) yo’li bilan ishlab chiqarishning sifat xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshiriladigan mahsulotdir. Mamlakatimizda korxonalarni rivojlantirish uchun respublikamizning iste’mol bozorlarini aholi o’rtasida xaridorgir bo’lgan sifatli mahsulotlar bilan to’ldirish, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, kichik korxonalar tomonidan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo’llab-quvvatlash, tarmoqda yangi texnik va texnologik, investitsiya siyosatini yuritish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobiga yangi va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni muntazam o’zlashtirish, tarmoq korxonalarini yangi texnikalar bilan jihozlashga jiddiy e’tibor qaratish uchun xorijiy sarmoyalarni keng ko’lamda jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

Xullas, innovatsion munosabat tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Ya’ni, bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar va xo’jaliklarning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishlari, xizmatlar ko’rsatishda muvaffaqiyatga erishishlari uchun muntazam ravishda yangiliklarni izlashga intilishlari va o’z faoliyatlariga tatbiq etishlari bu boradagi eng muhim jihatlar hisoblanadi.

Ilmiy rahbar: AndMI, Iqtisodiyot kafedrasi katta o’qituvchisi Saidova M.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. http://ekrost.ru/poster/povyshenie-effektivnosti-predprinimatelskoi-deyatelnosti-organizacii.html

2. R.A.Brealey, S.C.Myers, F.Allen “Principles of Corporate Finance*, 11th Global Edition. 1341 p. 65-p. 53 Чеботарь Ю.М. Корпоративные финансы и корпоративный контроль: монография /— М.: Автономная некоммерческая организация «Академия менеджмента и бизнес-администрирования», 2016 — 250 с., С. 8.

3. G20/OECD Principles of Corporate Governance. OECD 2015. https://www.oecd.org/daf/- ca/Corporate-Governance-Principles-BNG.pdf